

O'zbek she'riyatida xalqchillikni ifodalovchi ayrim lisoniy vositalar
(Oydin Hojieva she'riyati misolidpa)

Некоторые лингвистические средства выражения народности в
узбекской поэзии (на примере поэзии Ойдин Хожиевой)

Some linguistic means of expressing nationalism in Uzbek poetry
(Poetry of Aydin Hojieva for example)

F.Husainova - O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi, mustaqil tadqiqotchi

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoirasi Oydin Hojievaning "Shom shu'lalari" saylanmasining xalqchillikni ta'minlovchi ayrim badiiy til vositalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Badiiy tasvir vositalari, ko'chma ma'noli so'zlar, frazeologik birlik, etnografik leksika, dialektal leksika.

Аннотация: В статье анализируются некоторые средства художественного языка, выражающие народность поэтических текстов в поэзии народной поэтессы Узбекистана А. Хожиевой «Вечерние лучи».

Ключевые слова: Лингвистические средства, переносные слова, фразеологизм, фраза, этнография, диалектические слова.

Annotation: The article analyzes some means of artistic language that express the nationality of poetic texts in the collection of the national poetess of Uzbekistan A. Khodzheva "Shom Shulalari".

Key words: Linguistic means, figurative words, phraseological unit, phrase, ethnographies, dialectical words.

"O'zbekiston xalq shoiri O. Hojieva she'rlari allaqachon she'rxonlar qalbidan chuqur joy olgan. Bu she'rlar samimiyligi, go'zalligi, xalq dardiga, tashvishu shodliklariga hamohangligi bilan ajralib turadi", - deyiladi shoiraning "Ko'zimning oqu qorasi" nomli saylanmasiga yozilgan so'zboshida.

Haqiqatan ham elu yurt dardini ko'ylash, uning manfaatlariga mos ravishdagi mavzularida qalam tebratish shoira asarlarida bir qizil chiziqday o'tadi. I. Tulakov to'g'ri ta'kidlaganidek: O. Hojievani ko'proq qishloq manzarasi, o'qariq boshida turib choyga chaqirayotgan ayol, tutzorga omonat qurilgan belanchakda yotgan go'dak, qo'shquloq g'o'zaga boqib o'z o'tmishini o'ylayotgan dehqon qiziqtiradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, uning ko'pchilik she'rlarida mehkatkash va samimiy qishloq kishilari tasvirlanadi. "Sen ayolga "Dehqon ta'rifi", "Navro'znoma", "Momogulday opam bor", "Beshovlon qiz edik, beshgina biyron", "Lolaxonga", "Tamaraga", "Dehqon", "Sening onang mehnat", "Elim" nomli she'rlari bu

fikrimga asos bo'la oladi. O'zbek dehqoni "larzon mevalariga ko'z tegmasin" deya, olma shoxlariga isiriq osib qo'yadigan, tomiri yurtining tuprog'iga tutash sodda, zahmatkash: Милёнлаб ғўзанинг нозик илдизи-

Ulab qo'yilganmi tomirlaringga.
Egat oralaysan dildan nur sizib,
Bir zum ketolmaysan adirlaringdan...
Shoira ikki suyanch tog'lari bo'lmish ota
va ona obrazini ham o'zgacha mehr va muhabbat bilan chizadi:

Non isi keladi ko'ylaklaridan,
Erkalashi chashma suviday tiniq.
Onamning qorday oq lachchaklaridan
Ziyo yog'ilardi mehri obodlik. (Yodlash)
Oydin Hojieva "Sharq" nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati tomonidan chop qilingan "Shom shu'lalari" saylanmasida ilk to'plami "Shabnam" dan to oxirgi "Nazokat" to'plami sahifalaridan eng sara she'r, manzuma, doston, qasidalar nashr etilgan bo'lsa, 2011 yili bosmadan chiqqan "Tong tuhfalari"

saylanmasidan eng yaxshi hikoya, badia, esse, maqolalar, xotiralari o'rin olgan.

"Shom shu'lalari" saylanmasidagi she'r, doston, qasidalarining mavzu doirasi rang-barang. N Karimov bu haqda shunday yozadi: "Oydin o'z she'rlarida inson va tarix, inson va jamiyat, inson va tabiat mavzularini doim mahorat bilan yoritdi. Biz uning she'rlaridagi Buxoroning serbuyoq koloritli manzaralari va shu zaminda yashagan ajdodlarning lirik tasviri osha shoira yashagan va yashayotgan Vatan tarixini ko'z o'ngimizda ko'rgandek bo'lamiz".

Shoiraning Vatanga mehri ifodalangan quyidagi misrasiga diqqat qilaylik: Oqshomlari xayolchan, Saharlari bir halim. Tuproq yo'lda sarpoychan, O'ynab yurgan Vatanim. ("Qarz")

Diqqat qilinsa, misralarda hech qanday mubolag'a, sun'iy ko'tarinkilik, quruq, soxta iboralar yo'q. Ammo unda tasvirlangan detallar real, hayotiy va ular sodda til bilan samimiy ohangda kuylangan.

O. Hojjeva ona Vatan - O'zbekistonni madh qilar ekan, unga bo'lgan mehr - muhabbatini fasllarning nomiga bog'lagan holda tasvirlaydi hamda ularning xususiyatlarini, yurtning o'ziga xos fazilatlarini sifatida tilga oladi: Suvratingiz ko'rdim qo'shchanoqlarda, Bahorgi jalada, qatqaloqlarda, Otash saratonim, salqin mezonim - O'zbekistonim! ("Kuzda O'zbekiston")

Shoira yurtidagi ariq bo'ylarida cho'chmoma, qiziga taskin- hangoma, nabiralari tilida ertak, daraxt labidagi kurtak, O'rtacho'lga bahor sarposi bo'lib yongan chechakka do'nishini orzu qiladi:

Ota -bobom yotgan aziz tuproqda

Kuylab turgan kumush terakka do'nsam.

Onam qirq yil kutib uxlay olmagan,

Akamdan kelgan xush darakka do'nsam.

("Ariq bo'ylarida cho'chmoma bo'lsam")

Vatanni "belanchak boshidagi dilbar onaga", xalqning dardiga, iymoniga qiyos qiladi: Vatan- lymon, Vatan- dard, Kimki jon-tanin sevar- hech kimdan kam bo'lmagay, Aslo qaram bo'lmagay! ("Aslo qaram bo'lasmiz")

Uning ona yurt, Vatan haqidagi she'rlarining bir halqasi ozodlik istiqlol bergan ne'matlarga borib tutashadi:

Ruhlar - uyg'oq, sha'n- uyg'oq,

Tilimda alyor o'sar.

Istiqlol so'zin aytsam,

Ko'nglimiz ming bor o'sar.

Qishloq tabiatining go'zal manzarasini madh qilar ekan, undagi daraxtlar, hatto poliz ekinlari, yovvoyi o'tlar, gullar nomiga murojaat qiladi: Etagingga to'kilgan, Marvartak tut bo'lsaydim. ("Qarz") Yoki: Quyoshning sehridan kuch olib, Qaddin tikladi boychechak. ("Kuylaylik, dugona") Yana: Yozda alvon bo'lar anorzor, Devor oshar kadipalaklar. Darvozaning oldida ulkan, Hikmatli bir gujum shovullar ("Gujum bilan sirlashgan chollar").

Shoira ustozlariday "o'z yurtidagi hatto quriq cho'pini", yantog'ini, yavshonini, qirlarga zeb bergan qirqog'ayni kabi dala gullarini ham ko'ziga tutiyo qiladi: Avval salom Sizga, chuchmomalarim, Salom, chuchuk tili qizg'aldoqlarim. Yalpizlarim, Sizga - dilnomalarim, O'rgilayin Sizdan cho'l - yantoqlarim! ("Salomnoma")

Shoira tabiat go'zalligi, pishiqchilik oylarini tarannum etar ekan, dov- daraxt, o'simliklar nomini asosiy rag'bat vositasi qilib oladi: Zardoli pishdi hil-hil, Hidi kelar bu zamon. O'rikzorlarga yurgil, Boraylik, dugonajon. ("Suhbat")

O. Hojjeva o'simliklar nomini ko'p holda ko'chma ma'nolarda qo'llaydi. Masalan, baxtiyor qizning orzularidan tug'ilayotgan cheksiz armonlarini olmaning noparmon guliga qiyos qiladi, boshqa bir o'rinda esa, uning chakkasiga rayhon taqishi sevimli kishisi baxsh etgan shodlikning boisi deb biladi: Sen borki, orzumdan orzular bunyod - Olmaning noparmon guliday g'ujg'on... Sen borki, chakkamga taqaman rayhon. Ko'zlarim surmadan yonar tun misol. (O. Hojjeva, "Sen borki...")

Bo'y yetgan qizni qanday o'rik donasiga qiyoslash yoki shodlikni nulufar gulga o'xshatish ham she'riy misralarga ta'sirchanlik bag'ishlagan: Qandak o'rik donasi bo'lsang, Bo'ylaringdan o'rgilay o'zim. ("Armon"); Hajringda chekib alam Ko'z yoshlarim bo'lsa ko'l, Eh, shodligim o'sha

dam Undagi nilufargul! ("Hajringda chekib alam...")

Xalqning urf - odatlari, rasm - rusumlari, qadimiy, diniy, falsafiy, madaniy - ma'naviy an'analari, kundalik turmushi, oilaviy xususiyatlari tasvirlangan badiiy asar tilida etnografik va dialektal leksikaning ishtirok etishi tabiiy holdir. O. Hojiev va she'riyati tilida sovchilik, oqlik, sep, to'y, to'y-to'ychiq, alla, farzandli bo'lish va u bilan aloqador tushunchalar nomi ham tilga olinadi: Men alla aytaman kichkina xonam, Ufq'larga tutash yerday bapoyon. ("Alla")

Boshqa xil rasm-rusumlar, odat va an'analarni anglatuvchi etnografizmlar. **Suyunchi:** Yana suyunchi deb tutildi belbog', Shohi ro'mollarning tahi buzildi. Xushxabarga to'ldi kichkina qishloq.

("Kelinchak"); **Sochqi:** Kumush sochqilar misol sochilmoqda momiq qor. ("Kelin"); **Uloq:** Dilda uloq chopmoqda xayol. ("Tashqarida sargardon shamol..."); **Bekinmachoq:** Hadeqanda kirmasdi uyga, Qo'li tegmay bekinmachoqdan. ("Hayotga ta'zim"); **Sumalak, davra, gurung:** Sumalak undirgan bug'doyim totli! Matalgo'y momolar tili novvotli! Davra - gurung xumor el bo'lsin endi! ("Yodnoma"); **Oqiziq non:** Tanidingmi meni hoy, Do'rmon ariq, Oqizoq nonga o'ch o'sha qizingman. ("Salomnoma"); **To'r to'qimoq:** Yagona paytlari tutlar tagida, To'r to'qigan chog'da qizlar yashirib, Qatim bo'lgan quyosh-men sevgan qo'shiq. ("Men sevgan qo'shiq")

She'riy misralarning birida Ayol sunbula suviga o'xshatiladi. Bu o'xshatish she'rda real hamda haqqoniy badiiy tasvirga aylangan. Demak, bu ayolda sokinlik, poklik mujassam: Sunbula suviday tiniq bir Ayol Dunyoni asraydi balo – qazodan. ("Mustaqil Vatanni baxt nuri chaysin...")

Igna tutib tikish insonga xosdir. Ammo shamolning igna tutishi, albatta, tasavvuriy holat, jonlantirishdir: Boyqush sayrashidan Qichqirig'idan Tun darz ketadi. Shamol igna tutib Tuning darzini Tikkan o'tadi. ("Boyqush sayramoqda")

Insonni tabiatning turli hodisalari, xususiyatlariga qiyoslash, o'xshatish she'riyatda keng tarqalgan holat, badiiy usul hisoblanadi. Ammo ba'zi hollarda buning aksicha, tabiatning ba'zi xususiyatlari

insonga o'xshatilganiga duch kelamiz. Ma'lumki, asad oyi shamsiya yili hisobida 22 iyuldan 21 avgustgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu oy pishiqchilik, ma'murchilik oyidir. Shu sababli, shoiraning asad oyini baxti kulgan qizga qiyoslashi juda o'rinli chiqqan. Chunki bu qizning sep- anjomi but bo'ladi, ona to'y oldidan qizi uchun taraddudlanganidek, tabiat ham o'z farzandi asad uchun taraddud ko'radi. G'oyat original o'xshatishlar: Asad oyi sep - anjomi but Baxti kulgan xur qizga monand. (O. Hojiev va, "Avgust kunlari")

Frazeologizmlar she'riyat tiliga ixchamlik, ta'sirchanlik, obrazlilik bag'ishlaydi. Ular xalq tilida yaratilgani uchun xalq hayoti va ma'naviyatiga yaqinlik ottenkasi bo'rtib turadi. Bunday holatlarni O. Hojiev va she'rlari tilida uchraydigan frazemalar misolida ham kuzatish mumkin. Quyidagi misralarda frazeologik birlik she'riy nutqqa moslanadi, uning komponentlari o'zni almashtiriladi yoki frazeologiya misra (gapning) tarkibiga singdirib yuboriladi: Qulog'imga chalinadi keksalar naqli Falonchimi puch yong'oqqa to'ldirar qo'yin ("Mushfiq onajon")

O. Hojiev va she'riyati tilida shunday misralar iboralar uchraydiki, ular o'z xarakteriga ko'ra frazemaga yaqin turadi. Bu hol shoiraning badiiy mahoratidan darak beradi. a) **sherga to'qim urmoq:** Birov epchil narra sherga uradi to'qim... ("Odamlar bor"); b) **qalbga yuk ortmoq:** Kelining ko'rgan zamon Oh tortmagil, onajon, O'zi dardkash qalbingga Yuk ortmagil, onajon. ("Keliningni ko'rganda"); v) ko'ngli o'lmoq: Ko'ngli o'lgan odamning Kun ko'rish qiyindir ("Ko'zimning oqu qorasi"); g) Imoratga toqa ustun Bo'lganmikan hech asos. ("Ikki bo'lsang omading ham..."); d) Yaxshiyamki kitoblar bor dunyoda, Ko'kka uchsang oyog'ingdan tortadi. Tarki dunyo qilib gohi olamdan, Yerga kirsang – qulog'ingdan tortadi. ("Kitoblar")

O. Hojiev o'zbek maqollaridan unumli foydalangan va bu hol misralarning ta'sirchan va barqaror mazmunli bo'lishiga ma'lum hissa qo'shgan. Ammo kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, shoir maqolning asosan shaklini saqlagan holda, uni she'r matniga, misra talabiga moslagan,

ya'ni o'z tillari bilan qayta ishlagan: Qudachilik ming yilchilik, Doimo bir ko'ngilchilik ("Mushfiq onajon"); - Aytsam tilim kuyar, aytnasam- dilim, Bir orqa sochlarin qirqibdi Gulim. ("Kampirlar"); Axir o'nta bo'lsa, boshqadir o'rni, Qirgta bo'lsa axir, qiligi boshqa. ("Orzu guli"); Bezabon etdi meni mahbubga bir so'z aytmadim. Sut

bilan kirgan bu odat endi chiqqay jon bilan! ("Orzu guli")

Aslida, shoira O. Hojievanning har bir she'ri, doston, qasidalari o'ziga xos, xalqchil, hayo tiy, tili shirali. Uning xalqona yo'llarda yaratilgan "Xalq ohanglarida", "Xalq yo'lida", "Yor yengina gul kashta" kabi she'rlari, qo'shiqlarining o'zi alohida alohida tadqiqotlarga arziydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bazarbaev T. O'zbek so'zlashuv nutqi frazeologiyalari: Filol. fanlari nomzodi. diss. avtoref. - Toshkent, 2001. -22 b.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingopoeitik tahlili asoslari. - Toshkent: Fan, 2007. - 123 b.
3. Hamidiy H, Abdullaeva Sh, Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1970, -B, 247.
4. Qosimova M.B. Badiiy nutq individualigi lingvistik xususiyatlari. (Tog'ay Murod asarlari asosida). NDA. - Toshkent, 2007.
5. Hojieva O. Shom shu'lalari. Saylanma. -Toshkent: Sharq, 2010. -445b.

ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ ПРОИЗВОДНЫХ СЛОВ С СЕМОЙ "КОЛИЧЕСТВО"

FUNCTIONING OF DERIVATIVE WORDS WITH THE FAMILY "QUANTITY"

О.В.Шевцова-

к.ф.н., доцент, УзГУМЯ, Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В статье рассматривается функционирование производного слова со значением "количество" в тексте или микротексте, что отражает разные стороны и аспекты организации семантики производного.

Ключевые слова: актуализация сем, деминутивы, денотативный характер семантики, десемантизация, значение единичности, значение субъективной оценки, значение увеличительности, идея множества, увеличительные производные, функционирование ПС в тексте.

Abstract: The article examines the functioning of a derivative word with the meaning "quantity" in a text or microtext, which reflects different sides and aspects of the organization of the semantics of the derivative.

Keywords: actualization of semantics, deminutives, denotative character of semantics, desemantization, the meaning of singularity, the meaning of subjective assessment, the meaning of magnification, the idea of a set, magnifying derivatives, the functioning of the PS in the text.

Функционирование производного слова в тексте или в пределах его формально и семантически организованном отрезке – микротексте – отражает разные стороны и аспекты организации семантики производного.

В данной статье рассматриваются преимущественно те аспекты функционирования ПС, которые связаны с

- актуализацией количественных сем, -взаимодействием словообразовательных категорий, - употреблением ПС в необычных микротекстах, создающих своеобразные приращения семантики ПС, их рассогласование с парадигматическим устройством той или иной СК.

В реальных текстах (как письменных, так и разговорных) разные